

To'xtasin Rajabov

*Buxoro davlat universiteti
“Musika ijrochiligi va madaniyat” kafedrası professori,
pedagogika fanlari nomzodi (DSc)
E-mail: rajabovtuxtasin@gmail.com*

UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA O'ZBEK MUSIKA FOLKLORINI O'RGATISH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH IMKONIYATLARI

Annotatsiya. Maqolada o'zbek xalqining milliy mumtoz kuy va qo'shiqlarini, musiqiy merosini o'rganish va kelajak avlodlarga yetkazish, xalq bayramlari munosabati bilan badiiy-estetik xarakterdagi sayllar o'tkazish, sayllarda xalqning ichki tuyg'usi, o'zligini anglatuvchi xarakter xislatlar og'zaki ssenariyalar, jonli muloqotlar asosida ifodalash. Har bir bayram yoki marosim munosabati bilan o'tkaziladigan sayllar shu tantananing shakliga mos qo'shiqlar, yallalar va boshqalar bilan mazmunan rang-barang tarzda o'tkazishlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: qo'shiq, xalq bayramlari, sayllar, kuy, musiqiy meros, yallalar, marosim, mehnat qo'shiqlari, Navro'z bayrami.

OPPORTUNITIES FOR IMPROVING THE PROCESS OF TEACHING UZBEK MUSICAL FOLKLORE IN THE SYSTEM OF CONTINUOUS EDUCATION

Abstract. The article explores the study of Uzbek national classical melodies and songs as well as the preservation and transmission of musical heritage to future generations. It also analyzes the organization of artistically and aesthetically oriented folk festivals, highlighting the expression of national identity and inner emotional values through oral scripts and live communication. The pedagogical significance of organizing festivals dedicated to specific celebrations and ceremonies with songs, yallas (traditional Uzbek choral folk songs) and other folklore genres appropriate to the nature of each event is revealed.

Keywords: song, folk festivals, public celebrations, melody, musical heritage, yalla folk songs, ceremony, labor songs, Navruz festival.

Mamlakatimizda ishlab chiqilgan milliy o'quv dasturi ta'lim mazmuniga xalqaro tajribalarning foydali jihatlarini tatbiq qilish bilan bir qatorda milliy-estetik qadriyatlardan optimal tarzda foydalanish zaruriyatini yuzaga keltirdi. Bu borada milliy musiqiy madaniyatimiz alohida ahamiyat kasb etadi. O'zbek xalqining milliy mumtoz kuy va qo'shiqlarini, musiqiy merosini o'rganish va kelajak avlodlarga yetkazishning eng samarali yo'llaridan biri, shubhasiz, bo'lajak musiqa o'qituvchisini bu jarayonga tayyorlash bilan bog'liq [1, 2-b].

Kishilik jamiyatining paydo bo'lishi bilan boshqa elatlar qatori turkiy xalqlarning ham qadimda ko'p xudolikka bo'lgan e'tiqodi, animistik va totemistik tafakkur tarzi ta'lim-tarbiyani, jamoa bo'lib amalga oshirishga asos bo'lgan. Ibtidoiy kishilarning mifologik tushunchalar (parilar, devlar, jinlar, arvoqlar, shaytoniy va rahmoniy ruhlar)ga bo'lgan ishonchi hamda inson ongi va tafakkuriga bog'liq bo'lmagan tabiiy hodisalarni ilohiy quvvat asosida bo'ysundirishga intilish motivlari negizida mehnatsevarlik, odamiylik hamfikrlilik kabi umuminsoniy ma'naviy-axloqiy qadriyatlar yotadi [2, 25-b].

Jamiyat taraqqiyoti, inson ongining rivojlanishi bilan bevosita bog'liq holda ta'lim-tarbiya jarayoni uzluksiz, doimiy tarixiy xarakterga ega bo'lib takomillashib bordi. Tarixiy manbalarning guvohlik berishisha, poleolit davrida (taxminan miloddan 40–41 ming yil ilgari) yer yuzining shimoliy qismida totemizmga oid “ayiq bayramlari”, keyinshalik “mehnat o'yinlari”, “orgaist bayramlar”, “erkaklikka o'tish” marosimlari “sust xotin”, “shoy momo”, “qurbon hayiti” kabi bayramlar xursandchilik, yaxshilik, to'qlik, farovonlik ramzi sifatida o'tkazilgan.

Xalq ijtimoiy, ma'naviy va madaniy turmush tarzining o'zgarishi bilan xalq qo'shiqlari ham shaklan va mazmunan boyib, uning madaniy turmush tarzi, orzu istaklarini namoyon etuvshi ta'lim-tarbiya vositasiga aylangan.

Keyinchalik “Navro'z”, “Mehrjon”, “Sada”, “Gul” bayramlari, “Guli surx”, “Chiqon”, “Xatar”, “Darvishona”, “Ashaddarozi” o'yinlari, “Iyd al-fitr” (kishik iyd yoki ro'za hayiti), “Iyd al-kabr” (katta iyd yoki qurbon hayiti) kabi milliy udum va qadriyatlar ham xalq an'alariga qo'shildi. Har bir bayram, marosimning tabiiy

ta'sir kuchi shu an'ananing mazmunini ochishga xizmat qiluvchi urf-odatlar, rasm-rusumlar bilan mustahkamlanadi.

O'zbek xalq qo'shiqlarining qadimiy namunalari mehnat va mavsum qo'shiqlaridir. Qo'shiq ijodkorlarining amaliy faoliyati ovchilik, chorvashilik, dehqonchilik, hunarmandchilik bilan bevosita bog'langan va ular mehnatkash xalqning qadimiy urf-odatlari, marosim va e'tiqodlari negizida yashab kelgan.

Mehnat qo'shiqlari turli mehnat jarayonlari bilan bog'liq. Masalan, xirmon yanchishda "xo'p mayda" yoki "mayda gul", sigir, qo'y, echkilarni sog'ish va buzoq, qo'zi, uloqlarni emizishda "xo'p-xo'p", "qurey-qurey", "churey-churey" qo'shiqlari kuylangan. Yer haydash, o'rim, yorg'uchoq tortish, charx yigirish va bo'z to'qish jarayonlarida maxsus qo'shiqlar aytilgan. Insonning yashash tarzi, turli-tuman irim-sirimlar, urf-odatlar, mavsumiy yumushlar, marosimlar va bayramlar bilan bog'liq ravishda juda ko'p xalq qo'shiqlarining namunalari yaratilgan [3,72-b].

"Navro'z" bayrami bilan bog'liq bo'lgan dasturxon bezash, sumalak, halim pishirish, ariq-zovurlarni tozalash, birinchi ko'chat ekish, marhumlarni xotirlash, ota-ona va keksalar, nogironlarga muruvvat ko'rsatish, qadamjolarni ziyorat qilish, shirinliklar ulashish, bir-biriga hadyalar in'om etish, mash'alalar yoqib, ariq, daryolar bo'yiga borish, sayllar o'tkazish kabi udumlar odat tusiga kirib qolgan. Shuningdek, Navro'z bayramida yetti xil (bug'doy, arpa, no'xat, jo'xori, gurush, mosh, loviya)dan go'ja tayyorlanib, qo'ni-qo'shnilariga ulashilgan. Bu odatlarning barchasi ramziy ma'noga ega. Xalq bu marosimlar orqali yangi yilda yog'ingarchilikning mo'l bo'lishi (yog'ingarchilik ko'p bo'lsa, hosil mo'l bo'ladi, chorva uchun esa yem-xashak serob bo'ladi); tinchlik, farovonlik bo'lishi, odamlar o'rtasida mehr-muruvvat, insonparvarlik barqarorlashuviga ishora etadi.

Xalq bayramlari munosabati bilan badiiy-estetik xarakterdagi sayllar o'tkazilgan. Sayllarda xalqning ichki tuyg'usi, o'zligini anglatuvchi xarakter xislatlar og'zaki ssenariyalar, jonli muloqotlar asosida ifodalangan. Har bir bayram yoki marosim munosabati bilan o'tkaziladigan sayllar shu tantananing shakliga mos

qo'shiqlar, yallalar va boshqalar bilan mazmunan rang-barang tarzda o'tkazilgan [4, 19-b].

O'tmishda sayl shaharlardagi registon maydonlari, chorsu va rastalar, shahar tashqarisidagi katta maydon va adirlarda qaror topgan saylgohlar, shuningdek qadamjolarida o'tkazilib, bir haftadan bir va ba'zan ikki oygacha davom etgan. Saylga yosh-u qari, ayollar, bolalar, butun xalq maxsus tayyorgarlik ko'rishgan, yangi kiyimlar tiktirishgan, yangisiga qurbi yetmaganlar, eskisini yuvib yamashgan, hovlilar-ko'chalar supurilgan, tansiq taomlar, shirinliklar tayyorlangan. Hunarmandlar saylgohlarda sotish uchun amaliy san'at asarlari, dehqonlar meva-cheva, noz-ne'matlari, savdogarlar, baqqollar, attorlar noyob mollardan olib borishgan. Saylgohlarda mansab va nasabiga qarab tartib bilan chodir-chaman tikilgan. Xalq savdo-sotiq qilishgan, ko'ngil oshgan, tomosha qilgan. Saylgohlarda davlat va xalq oqsoqollari tomonidan uyushtirilgan poyga, uloq, kurash, shavgon musobaqalari, shakvi deb atalmish san'at bayramlari, sozanda, hofiz, raqqos, masxaraboz, qiziqshi, nayrangboz, ko'z bog'lovchi, dorbozlarning chiqishlari, ayiq, eshki, maymun, ilon o'ynatuvshi, xo'roz, qo'chqor, tuya urishtirish, mushakbozlik namoyish qilingan. Bayramlar, sayllarda turli narsalardan yasalgan qo'g'irchoq o'yinlari ham namoyish etilgan [5, 87-b].

O'tkazilgan barcha bayramlar va sayllarda cholg'uchi va qo'shiqchilarning bevosita ishtiroki bu tadbirlarda ko'tarinki ruh va tantanovorlik kiritgan. Ayniqsa, ko'pchilik bo'lib kuylanadigan xalq qo'shiqlari va ommaviy raqslar xalqning erkin nafas olib, yayrashida muhim ahamiyat kasb etgan.

Xalq qo'shiqlarida hayot badiiy ramzlar orqali aks ettiriladi va shu tufayli inson qalbida estetik his-tuyg'ular, hayajonlar, ko'tarinki kayfiyat, rahm-shafqat, shodlik, quvonch, g'am-qayg'u, hasrat, nafrat paydo bo'ladi. Shuning uchun ham xalq qo'shiqlariga barcha yoshdagi kishilar birday murojaat qiladilar.

Bola endigina dunyoga kelgan kunidan boshlab, onaning ardog'ini, yoqimli allasini eshitadi. Bolalar uchun maxsus yaratilgan bu qo'shiq kichi ongiga ona suti

bilan kiradi. Keyinchalik u tobora kengayadi, rang-barang ohanglar, xilma-xil ramzlar soʻzlar bilan mukammallashib boradi.

Farzand tugʻilishi, chaqaloqning beshik davri, ulgʻayishi, jismoniy va nutqiy barkamolligi, yosh va sunnat toʻylari, ulgʻayish ehtirolari bilan bogʻliq aytim-olqish, erkalama, ovutmachiq, qichiqmashiq, yalinchoq, hukmlagich, chalgʻitma, chorlama, guldur-gup, sanama, aytishma, tegishmachiq, masxaralamalardan iborat butun bir bolalar qoʻshiqlari tizimi yaratilgan.

Alla qoʻshigʻining bola shaxsida ota-ona, Vatan, millatga muhabbat tuygʻusini eng dastlabki kurtaklarini shakllantiruvchi vositasi sifatida maydonga kelgan. Alla vositasida bola milliy til va milliy musiqa ohanglariga oʻrganib, unda milliy ruh qaror topib boradi. Bola ulgʻaygan sari uning maʼnaviy tafakkur darajasi ham rivojlanadi, turli shakl va mazmundagi xalq teatrlari vositasida zehni oʻtkirlashib, nutqi oʻsib, dunyoqarashi kengayib, maʼnaviy ehtiyoji va qiziqishi ortib boradi [6, 45-b].

Ona allasi umumbashariy qimmatga ega. Allalar beshik qoʻshiqlarining keng tarqalgan anʼanaviy janri hisoblanadi. Jahonda biror xalq, millat yoki elat yoʻqki, ularning tilida alla kuylanmasa... Ruslarda “bayki” yohud “bayushki” deb yuritiluvshi bunday qoʻshiqlar turkmanlarda “huvdilar”, tatarlarda “elli-belli”, qoraqalpoqlarda “heyra-heyra”, turklarda “ninni”, forslarda “lolo”, oʻzbek va tojiklarda “alla” atamallari bilan mashhurdir. Alla jahon onalarining mehriga yoʻgʻrilgan bir qadar farahbaxsh, ammo oʻrni bilan esa bir qadar gʻamgin eng muqaddas qoʻshiqdir.

Alisher Navoiy “alla” aytishni “navogo” deb ataydi;

Koʻzining nozi eldan eltib uyqu,

Anga uyqu keturmakka navogoʻ.

Yaʼni alla bolalarni uyquga elttiruvshi sehrli kush ekanligiga ishora qiladi.

Abu Ali ibn Sino allomalarning bola tarbiyasidagi ahamiyatini koʻrsatib, bu masalada faqat jismoniygina emas, ruhiy omilga ham diqqatimizni tortadi; “Bolaning mijozini kushaytirmoq ushuni, unga ikki narsani qoʻllamoq kerak. Biri

bolani sekin-asta tebratib, ikkinchisi uni uxlatish uchun odat bo'lib qolgan musiqa va alladir. Shu ikkisini qabul qilish miqdoriga qarab bolaning tanasi bilan badan tarbiyaga va ruhi bilan musiqaga bo'lgan iste'dodi hosil bo'ladi".

Ulug' Hakim alla aytayotgan onaning kuyni ijro qilayotganda g'azab, g'amginlik, cho'chish singari salbiy holatlardan holi bo'lishini maslahat beradi. Demak, alla uni kuylayotgan onaning qalbida ham mehr-muhabbat hislarini uyg'otadi.

Xalq qo'shiqlarining yana bir muhim turi bu marosim qo'shiqlaridir. Marosim qo'shiqlari insonlarning hayot, voqeylik va tabiat o'zgarishlariga bo'lgan madaniy munosabatlarini ifodalovshi qarashlari asosida vujudga kelgan san'atdir. Marosimlarda olg'a surilgan umuminsoniy, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar ko'rgazmali faoliyat targ'ib etiladi. Ruhshunoslik, san'at, pedagogika qoidalarining uzviy birligida ma'naviy qadriyatlarning uyg'unlikdagi mazmuni o'quvchilar ongiga singdiriladi. Masalan, inson u yoki bu marosimni o'tkazish ushun ruhiy jihatdan o'zini tayyorlaydi, unda musiqa ohanglari, so'z san'ati dramatik harakatlardan foydalanadi. Bu esa, xalqning ma'naviy va moddiy turmush tarzi, axloq mezonlari, o'tmish, bugun va kelajakdagi ma'naviy hayotga bo'lgan qiziqish va intilishlarini namoyon etishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Har bir marosimning o'ziga xos rejasi, maqsadi va vazifalari kishilarning ma'naviy dunyosiga ta'sir eta olish mezoni asosida baholanishi lozim. Folklorshunos olim B.Sarimsoqovning tasnifiga ko'ra, o'zbek marosim qo'shiqlari mavsumiy va amaliy-maishiy qo'shiqlar turkumiga bo'linadi. Birinchi turkum marosim qo'shiqlari ham ikkiga: faqat mavsum bilan bog'liq ashulalar: "Sust xotin", "choy-momo", "Yas-Yusuv"; mavsumiy mehnat, xo'jalik yuritish tarzi bilan bog'liq qo'shiqlar "Loy tutish", "Shox moylar", "Oblo baraka" kabi janrlarga bo'linadi. Oilaviy-maishiy marosim qo'shiqlari tematik-funksional xususiyatlarga ko'ra to'rt guruhga: so'zning sehr qudratiga asoslanuvchi qo'shiqlar – kinna, gulafsho, olqish, qarg'ish, afsun; bolalarning beshik davri qo'shiqlari – chilla ko'chiriq, beshikka solish; to'y qo'shiqlari – jir, yor-yor, o'lan, lapar, kelin salom, kuyov salom, to'y

olqishlari, oyna ko'rsatar; motam qo'shiqlari – yig'i-yo'qlov, motam yor-yoridan iborat [7, 87-b].

Qo'shiq janri bir qancha oddiy turlardan ham iborat bo'ladi. Afsunli qo'shiqlar – ma'lum bir marosimlarni bajo keltirish, masalan, yomg'ir chaqirish, quyosh va oy tutilishini to'xtatishni iltijo qilish hamda boshqalarda ham muhim o'rin tutadi.

Ko'p qirrali muhabbat lirikasi, satira va yumor, tarixiy mavzu, ijtimoiy norozilik ushbu guruhga tegishli har bir janr- terma (yoki sho'blama) qo'shiq, lapar, yalla va ashulalar asosini (garshi ular bir-biridan ravshan ifodalangan xarakterli musiqali xususiyatlari bilan farqlansa ham) tashkil qilishi mumkin.

Terma o'z kuyining ma'lum darajada so'zlarning kuy va ohang uyg'unligida ifodalanishi tor diapazoni va ixcham shakli bilan xarakterlanadi. Termalar matni mazmunan turli xil bo'lib, ko'pincha barmoq vaznidagi yetti-sakkiz bo'g'inli misralardan iboratdir.

Qo'shiq janr sifatida nisbatan kichik diapazonli kuydan tashkil topib, barmoq vaznidagi poetik matnning to'rtlikdan iborat bir bandi yoki bir-ikki misrasini qamrab oladi, ayni vaqtda har bir she'riy misraga tugal ohang moslashtirilgan bo'ladi. Qo'shiq juda keng tarqalgan janrlardan bo'lib, o'z mazmunining xilma-xilligi, ko'pqirraliligi bilan alohida ajralib turadi. Lapar raqs bop kuyga ega bo'lib, ko'pincha o'yin-raqs bilan ijro etiladi. Uning matnlari asosan ishqiy-lirik, didaktik, yumoristik yoki hazil she'rlardan tashkil topadi. Ayrim tumanlarda "Lapar" atamasini o'lan deb yuritiladigan dialog shaklidagi to'y marosim qo'shiqlariga nisbatan ham qo'llaniladiki, bu aytishuv kelin hamda kuyov tomon vakillarining har bir guruhida alohida-alohida unison xor sifatida ijro etilishi yoki yakkaxonlar dialogi tarzida bo'lishi mumkin [8, 48-b].

Yalla raqs jo'rligida ijro etilib, u ikki xil bo'ladi. Birinchisining kuyi nisbatan tor diapazonli bo'lib, she'rdagi har bir band va uning o'yinlari yakkaxon yallachi, naqorat esa unison xor (bir guruh sozanda yoki ashulashilar, ko'pinsha tinglovchilar) tomonidan aytiladi. Bunday yallalarda har bir band naqorat bilan boshlanib, naqorat

bilan tugallanadi. Yallaning ikkinchi xili uchun, aksincha, nisbatan keng diapazonli rivojlangan kuy xarakterlidir. Unda unison xorning yakkaxon ijrosi bilan almashinib turishini ko'ramiz. Raqsni esa qo'shiqshi-yallachining o'zi emas, balki alohida raqqosa (yoki raqqos) ijro etadi.

Bugungi kunda yoshlarda milliy ma'naviyatimiz tarixi, boy mazmuni haqida bilim beruvshi, o'zligini anglashni ta'minlovchi xalq etnografik ansambllari ("Shalola", "Besh qarsak", "Chanqovuz", "Chorqarsak" va boshqalar) tashkil etilmoqda. Bunday ansambllar o'zbek xalqining estetik-badiiy an'analari, milliy san'at namunalarini tiklab, qadimdan milliy-ma'naviy qadriyat tarzida davom etib kelayotgan har bir vohaning o'ziga xos urf-odatlarini, rasm-rusumlarini jonlantiradi [9, 56-b]. O'zbek xalqining yor-yor, o'lan aytish, alla, yalla, doston kuylash, chanqovuz chalish, kelin kutish, chimildiq tuzash, kashta tikish, chit to'qish, jun savash, ip yigirish, kalava o'rash, shiroz to'qish, do'ppi tikish, supra yozib xamir qorish, qaynona, qaynota, erga munosabat, bola tarbiyalash, milliy taom tayyorlash, milliy kiyim turlarini namoyish etish kabi urf-odatlarini, an'analari o'quvchida o'zligini anglash tuyg'usini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalq qo'shiqlari bilan bog'liq janrlardan biri dostonchilikdir. Doston xalq ma'naviy qadriyatlarini qorishiq holda mujassamlashtirgan xalq og'zaki ijodi shakllaridan biri bo'lib, unda qo'shiq kuylash, musiqa diklomasiya qilish, bayon qilish kabi badiiy-estetik qadriyatlar mujassamlashtirilgan. Dostonlarda yuksak insoniy fazilatlar baxshilar tomonidan badihago'ylik yo'li bilan tinglovchiga yetkaziladi. Uning hissiy ta'sir kuchi orqali Sharq xalqlarining chatishib ketgan falsafiy, diniy, axloqiy qarashlari, urf-odatlarini, hayotiy turmush tarzi badiiy tafakkur qilinadi. Dostonning g'oyaviy yo'nalishi, asosan, xalqning turmush sharoitini samarali tashkil etish, ularning ruhiyatini quvvatlantirishga qaratilgan.

Dostonlarning tarbiyaviy ahamiyati ularda yuksak go'zallik va baxt-saodatga erishishning birdan-bir yo'li – maqsad sari qat'iy intilish, sabr va chidam, matonat, mardlik, qahramonlik ko'rsatishdan iboratdir. Shuningdek, muhabbat umuminsoniy qadriyat sifatida insonning ma'naviy qiyofasini belgilab beradigan omil, har qanday

yovuzlik ustidan qilinadigan g'alabani ta'min etadigan kuch, insonni jasoratga undaydigan va qalbidagi barcha ezgu fazilatlarini ro'yobga chiqaradigan vosita sifatida tarannum etiladi hamda o'quvchini sadoqatli qahramonlar timsolida shu tuyg'uga ilhomlantiradi.

Dostonlardagi milliy g'urur tuyg'usi kuylovchi va tinglovchi o'rtasidagi badiiy-estetik muloqot vositasida, ma'naviy muhit ta'sirida o'quvchi ongida shakllantiriladi. Dostonlarda pedagogikadagi tarbiya manbalari va vositalarining o'zaro ta'siri hamda aloqasi yaqqol namoyon bo'ladi. Bu esa, o'quvchini har tomonlama shakllantirishda tarbiya qirralariga yaxlit yondashishni ta'minlaydi [10,120-b]. Musiqa darslarida xalqning dostonshilik namunalaridan foydalanish, doston qo'shiqlaridan tinglash o'quvchilarda tarixiy qahramonlar va ularning jasoratini yaqqol tasavvur qilishga imkon beruvchi muhim vositadir. Xalq qo'shiqlari katta hayajonlantiruvchi kuchga ega, adabiyot va san'at uchun tuganmas manbadir.

O'quvchining yoshligida turli dramatik ermak o'yinlar (qo'g'irshoq, mehmon-mehmon, kelin-kelin) ta'sirida ijtimoiy hayotda mavjud voqea-hodisalar, turkiy xalqlar ma'naviy hayotiga xos urf-odatlar, an'analarning negizida mujassam bo'lgan sharqona xarakter belgilari haqida dastlabki tushunchalar shakllanib boradi. Aqliy fazilat bilan bog'liq xususiyatlardan topqirlik, hozirjavoblik, badiiy idrok etishga dunyoqarashini kengaytirishga erishadi.

Bolaning o'smirlik va o'spirinlik davrida xalq teatrining dastlabki dramatik shakllari (alla, o'yin), uning ma'naviy qiziqish, talab va ehtiyojini qondira olmaydi. Xalq pedagogikasida drama va teatr elementlari mavjud turli marosimlar, urf-odatlar, an'analar vositasida o'quvchilarda milliy g'urur va tafakkurini shakllantiradi. Buning uchun maxsus ma'naviy-axloqiy muhit yaratilib, faoliyat mazmuni amalga oshiriladi [11, 5-b].

Dramatik va teatr belgilari bilan yo'g'rilgan oilada bolaning dunyoga kelishi, uylanishi va turli oilaviy marosimlar – bolani beshikka solish, birinchi qadam tashlash, soch olish, sunnat to'yi, sovchilik, qiz oshi, nikoh, kelin bilan kuyov

tomonlarining o'lan va laparda tortichuvlari, kuyovning kelinni ko'tarib olov aylanishi), toptishmachoq, tanga, sochqi, tush ko'rish, yuz ochar, salomnoma, kuyov salom, kelin ko'rdi, sharlar, mehmon kutish, tug'ilgan kunni nishonlash kabi marosimlarda ham xalq qo'shiqlari kuylangan. Shunday qilib, yuqorida qayd etilgan xalq og'zaki ijodining sayllar, marosimlar, bayramlar, mehnat va mavsum qo'shiqlari, marosim qo'shiqlari, alla, afsunli qo'shiqlar, terma, lapar, yalla va xalq ansambllari, dostonchilik xalq musiqa pedagogikasining muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi va bular o'quvchining ma'naviy-axloqiy jihatdan shakllantirishda muhim omil bo'la oladi.

Xalq qo'shiqlari mazmun jihatdan milliy asosga ega bo'lib, birinchidan, ular muayyan davrda madaniy manba sifatida vujudga kelgan hamda ma'naviy-axloqiy fazilatlarning mazmuni, shakl va vositalarini mujassam etadi, ikkinchidan, u xalqning tajribada sinalgan yuksak ma'naviy-axloqiy xarakter xususiyatlari, tarbiya mezonlarini umumlashtirib ular o'rtasida qadriyat darajasiga ko'tarilgan. Xalq qo'shiqlari muhim targ'ibot vositasi hamdir. Ular millatning urf-odatlarini, dunyoqarashi, tuyg'ularini targ'ib qiladi va avlodlardan avlodga etkazadi [12, 2-b].

Xalq qo'shiqlari badiiy-estetik manbalar sifatida kishi hissiyoti orqali aqlni, aql orqali esa hissiyotni tarbiyalash vositasidir. Xalq qo'shiqlariga xos xususiyat ham aqliy teranlik, mantiqiy fikrlash asosida ma'naviy fazilatlarning barcha qirralarini ongli ravishda o'zlashtirish orqali aqliy barkamollikka erishishni ta'minlashdan iboratdir. Unda ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishning butun vositasi sifatida o'quvchilarning faoliyati, kundalik muloqot jarayonida amalga oshiriladi [13, 4-b]. Xalq qo'shiqlarining qamrov doirasi chegaralanmagan. Ularni kattalar yoki bolalar qo'shiqlari, kichik yoki katta yoshdagi o'quvchilarga mos qo'shiqlar sifatida izohlash nisbiy xarakter kasb etadi. Shuning uchun ham qo'shiqlar yosh avlodni ma'naviy-axloqiy shakllantirishda katta pedagogik imkoniyatlarga ega. Ularni o'quvchilarning yosh xususiyatlari, dunyoqarashi, axloqiy-estetik taraqqiyot darajasiga ko'ra guruhlagan holda 1–7-sinf “Musika”

darsliklariga kiritish ta'lim jarayonida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy shakllantirish tizimini takomillashtirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2018-yil 28-noyabr Qarori.
2. Avezov S. *Sanama janri tabiati va badiiyat*. –Toshkent: Fan, 2012. – 78 b.
3. Алавия М., Рўзимбайев С. *Совет даври халқ қўшиқлари*. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат, 1984. – 96 б.
4. Jo'rayev M. *Folklorshunoslik asoslari. O'quv qo'llanma*. – Toshkent: Fan, 2008. – 182 b.
5. Зарифов Х. *Ўзбек халқ ижоди*. – Тошкент: Фан, 1967. – 287 б.
6. Yuldosheva S., Sattorova G. *Folklor – etnografik ansamblari*. –Toshkent: O'qituvchi NMIU, 2007. – 210 b.
7. Кароматов Ф. *Халқ музыкаси. «Ўзбек музыкаси тарихи» китобидан*. (Тузувчи: Соломонова Т). – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат, 1981. – 273 б.
8. Rajabov D., Rajabov T. *Xalq qo'shig'i va musiqa ijrochiligi*. – Toshkent: Navro'z, 2018. – 127 b.
9. Safarova N. *O'zbek bolalar o'yin folklori tabiati*. – Toshkent: Fan, 2008. – 14 b.
10. Rajabov T. *Uzluksiz ta'lim tizimida o'zbek musiqa folklorini o'rgatish mexanizmini takomillashtirish. Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi*. – Termiz, 2023.
11. Rajabov T. *Uzluksiz ta'lim tizimida o'zbek musiqa folklorini o'rgatish dolzarab pedagogik muammo sifatida//Ijodkor o'qituvchi*. – 2022. – №2(21), – B. 21-31.
12. Rajabov T. *O'quvchi-yoshlarga o'zbek milliy musiqa folklori namunalari vositasida estetik tarbiya berish//Science and Education*. – 2021. – №2(11).

–B. 1094-1103.

13. Rajabov T. *Distinctive Features of Folk Songs that Serve in the Spiritual and Moral Formation of Bukhara Pupils*//*Pioneer: Journal of Advanced Research and Scientific Progress*. – 2023. – №2(3). –B. 59-68.